

**THE EVOLUTION OF THE IMAGE OF THE CHILD IN 20TH-CENTURY
ENGLISH AND AMERICAN LITERATURE**

ACHILOVA GULHAYO ISMOILOVNA

Toshkent davlat transport universiteti

tayanch doktoranti

Email: guliachilova9@gmail.com

ARTICLE INFO

**ARTICLE
HISTORY:**

Received: 19.04.2024

Revised: 20.04.2024

Accepted: 23.04.2024

KEYWORDS:

*Ingliz adabiyoti,
Amerika adabiyoti, bola
obrazi, psixologik tahlil,
adabiy evolyutsiya,
ijtimoiy kontekst.*

ABSTRACT:

Ushbu maqolada 20-asr ingliz va amerika adabiyotidagi bola obrazlarining shakllanishi va rivojlanishi o'rganiladi. Bolalarning adabiy talqini psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Ingliz va amerika yozuvchilari asarlaridagi bola obrazlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning farqli va o'xshash jihatlari aniqlanadi. Maqola adabiyotda bolalik tasvirining evolyutsiyasini yoritishga qaratilgan.

Kirish. 20-asr boshlarida ingliz va amerika adabiyotida bolalar obrazlarining tasviri va ifodasi sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlar adabiy asarlarda bolalar obrazini yangi, murakkab va chuqur ma'nolar bilan boyitishga sabab bo'ldi. Ushbu maqolada ingliz adabiyotidagi J. Joys, K. Mensfeld, D.H. Lourens, E. Bouen, V. Vulf kabi yozuvchilarning bolalar obrazini yaratishdagi roli va amerika adabiyotidagi bolalar tasvirining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va amerika adabiyotidagi bolalar obrazlarining o'xshashliklari va farqlari aniqlanadi.

Tahlil metodlari. Mazkur tadqiqotda adabiy tahlil va qiyosiy o'rganish metodlaridan foydalanildi. Adabiy tahlil orqali yozuvchilarning bolalar obrazlarini yaratishdagi uslubi, psixologik chuqurlik va ijtimoiy kontekstdagi yondashuvlari ko'rib chiqildi. Qiyosiy o'rganish metodlari yordamida ingliz va amerika adabiyotlaridagi bola tasvirining umumiy va farqli jihatlari aniqlab berildi. Asosiy manbalar sifatida J. Joysning "A Portrait of the Artist as a Young Man", K. Mensfeldning qisqa hikoyalari, V. Vulf va E. Bouen asarlari, shuningdek, amerika adabiyotidan J.D. Selindjer, R. Bredberi, T. Morrison kabi mualliflarning asarlari tahlil qilindi.

Natija va muhokamalar. 20-asr boshlarida ingliz va amerika adabiyotida bolalar obrazlari yangi adabiy shakl va mazmunlar bilan boyidi. Ingliz adabiyotida J. Joys, K. Mensfeld, D.H. Lourens, E. Bouen va V. Vulf kabi muhim yozuvchilar bolalar tasvirini rivojlantirishda yetakchi rol o'ynadilar. Ularning asarlarida bolalarning shafqatsizlik, zo'ravonlik va sadizm

kabi salbiy jihatlari bilan bir qatorda insonparvarlik va fidoyilik kabi ijobiy xususiyatlari ham aks ettirilgan. Yozuvchilar bolaning mantiqsiz tabiatini haqidagi qarashlarni yoritib, realistik obrazlar yaratdilar. Bu asarlar ko‘pincha avtobiografik elementlarga asoslanib, bolalar ruhiyatini chuqur va nozik ifodalagan. G. Jeyms va J. Joys tashqi dunyo emas, balki ong jarayonlarini tasvirlashda ilg‘or yondashuvlar qo‘llaganlar; xususan, J. Joysning “A Portrait of the Artist as a Young Man” romanida bolaning ong oqimi innovatsion usulda berilgan[1]. K. Mensfild esa “How Pearl Button was Kidnapped”, “The Child who was Tired” va “Prelude” kabi asarlarida bolalarning ichki dunyosini yanada realistik ko‘rsatish uchun zamonaviy badiiy uslublardan foydalangan[2].

XX asrdan boshlab, adabiyot bolalarga katta qiziqish ko‘rsata boshladi va jamiyat bolalarning sog‘ligi va farovonligiga e’tibor qaratgan sari, kattalar adabiyotidan bolalar adabiyotiga o‘tish yuz berdi. Viktoriya davrida bolalar zaif tasvirlangan bo‘lsa, Edvard davrida ular “mukammallashtirilgan, yo‘qotilgan, sog‘inilgan, baxtli va neo-romantik tarzda tabiat va tasavvur bilan bog‘langan”[3] bo‘lib, cheklovgarsiz bog‘larda yoki sarguzashtli makonlarda o‘ynashgan.

XX asr “bolalar adabiyotining oltin davri” sifatida e’tirof etiladi; ammo Birinchi jahon urushi davridan keyin bolalikka bo‘lgan munosabat keskin o‘zgaradi[3]. Krips (2000) va Mikenberg (2006) kabi tadqiqotchilar urushdan keyingi bolalar adabiyotida o‘tgan davrni sog‘inish va siyosiy repressiyalarga qarshi alternativ g‘oyalarni ko‘rsatib bergenini ta’kidlaydilar[4,5]. XIX asrda ijtimoiy masalalarni yorituvchi romanlar ustun bo‘lgan bo‘lsa, XX asrda yoshlar adabiyoti o‘sib chiqdi va o‘sish jarayonining murakkabligini tasvirlashga urg‘u berildi[6]. Mustamlakadan keyingi adabiyotda bola obrazi yangi milliy identifikatsiyaning ifodasi sifatida xizmat qildi. Postmodern zamonda esa “romantik bola” kontseptsiyasi davom etdi.

XX asr boshlarida bolalar ijtimoiy muhitga nisbatan ijobiy sharoitda tasvirlangan. Biroq vaqt o‘tishi bilan “muammoli bolalar” (Problemkinder) tushunchasi ommalashdi[7]. Bolalar ijtimoiy beqarorlik, zo‘ravonlik va e’tiborsizlikning qurboni sifatida tasvirlana boshladi. 1970-yillardan boshlab “muammo romanlari” bolalarning murakkab hayoti va o‘sishdagi qiyinchiliklarni ochib berdi. Lionel Shriverning “We Need to Talk About Kevin” asarida bolalarning o‘zini anglash va oilaviy ziddiyatlar chuqur yoritilgan.

Ikki jahon urushi oraliq‘idagi adabiyot bolalar psixologiyasi va jinsiyligini keng yoritdi [3]. Joys va Vulf bolalikni ong shakllanishining markaziga qo‘yib, xotira va tilning bolalikdagi rolini tadqiq etdilar. Ketrin Mensfild va Elizabet Bouen esa bolalikni oila va ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlarni ko‘rsatish vositasi sifatida ishlatganlar. Folkner “Shovqin va g‘azab” romanida bolalik va yoshlarning janubiy aristokratiya yemirilishidagi o‘rnini yoritgan.

XX asrning ikkinchi yarmida ingliz va amerika adabiyotida bolalar tasviri asosan salbiy xususiyatlar orqali ifodalandi. Bolalarning shafqatsizligi, rahmsizligi va g‘ayrioddiy rivojlanishi ko‘plab asarlarda o‘z aksini topdi. Avlodlar orasidagi ziddiyat, ayniqsa o‘smirlar uchun og‘ir kechadi, bu esa ko‘plab asarlarda aks etadi. Masalan, J.D. Selinjerning “The Catcher in the Rye” (1951), S. Chaplinning “The Day of the Sardine” (1961), U. Folknerning “The Reivers: A Reminiscence” (1962), J. Kosinskinning “The Painted Bird” (1965), D. De Lillonnning “White House”(1985), T. Morrisonning “Beloved” (1987) kabi asarlarda bu mavzular ko‘tarilgan.

Geyl Shmunk Myurrey ta'kidlaganidek, 1960-yillarning oxirlariga kelib Amerika madaniyatini qamrab oladigan bolalikning "o'zgartirilgan tasviri" "The Catcher in the Rye" (1951) romanida allaqachon yaqqol namoyon bo'lgan, Amerika madaniyatida bolalikka bo'lgan munosabat sezilarli darajada o'zgardi. J.D. Selindjerning "The Catcher in the Rye" (1951) asarida o'smirlilik davrining murakkabliklari va muammolari ochiq-oysin ko'rsatilgan bo'lib, bu o'smirlarning his-tuyg'ulari va muammolari haqida ilgari hech qachon bo'limgan darajada muhokama qilish imkonini yaratdi. Bu kabi "muammo romanlari" bolalarning himoya qilinishi shart emasligini anglashga yordam berdi[8].

1970-yillardan boshlab, bolalar adabiyotda markaziy o'rinni egallay boshladi. Bolalar endi faqat Xudo tomonidan yuborilgan yoki unga qaytish yo'lidagi ramziy obrazlar sifatida tasvirlanmay, kattalarning noto'g'ri qarorlari va muammolari tufayli zarar ko'rgan shaxslar sifatida ko'rsatilgan[3]. Oilaviy xilma-xillik va ichki ziddiyatlar, shuningdek, o'lim va ajralish kabi mavzular adabiyotda ko'proq yoritila boshlandi.

G'arb adabiyotida bolalar kattalarning e'tiborsizligi yoki zo'ravonligi qurbaniga aylanadi. Shena Makkayning "The Orchard on Fire", Arundati Royning "The God of Small Things", va Enn Enraytning "The Gathering" asarlarida bolalarning qiyinchiliklari va ularning atrof-muhit bilan munosabati tasvirlanadi. Jonatan Safran Foerning "Extremely Loud and Incredibly Close", Jon Apdaykning "Terrorist", va Don DeLilloning "Falling Man" asarlari bolalarni terror davrining asosiy qurbanlari sifatida ko'rsatadi[9].

Shuningdek, XX asr adabiyotida bolalarning insoniylikdan mahrum bo'lishi motifi ommalashdi. Rey Bredberi asarlarida esa bolalarning shafqatsizligi va kattalarga nisbatan dushmanona munosabati aks ettirilgan [10]. Yozuvchining "The Veldt" (1951) va "The Small Assassin" (1946) hikoyalarida ota-onalar bolalari tomonidan vahshiyona o'ldiriladilar. XX asr adabiyotida bola va kattalar o'rtasidagi rol almashuvi motivi keng tarqaldi: ilgari begunoh tasvirlangan bola kuchli va mustaqil obrazga aylana boshladi. Kuchli, jiddiy, mustaqil bola, infantil, naiv va bechora kattaga qarshi qo'yiladi. Yozuvchilar zamonamiz ijtimoiy muhitini infantil kattalar tomonidan yuzaga kelgan zulm va jaholatdan tozalash uchun shafqatsiz va vahshiy bolalar obrazlariga murojaat qilganlar[11].

1990-yillarning o'rtalaridan boshlab, AQSh va Buyuk Britaniyada bolalik haqidagi avtobiografiyalar ko'plab nashr etila boshlandi. Bu asarlar oilani chuqur tahlil qilishga, bolalikdagi travmalar, bolalar huquqlari, zo'ravonlik, ijtimoiylashuv, ta'lim holati va bolalarning jinsiyligi kabi mavzularni yoritishga qaratilgan edi[12]. Andrea Ashvort, Konstans Brisko, Avgusten Burrouz va Devid Pelzer bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammolarini tadqiq qilib, beg'ubor bola haqidagi tasavvurni xato ekanligini ko'rsatdilar. Shunday qilib:

- Ingliz adabiyotida bola obrazi ko'proq romantik, idealistik va nozik psixologik tafsilotlar bilan ifodalangan.
- Amerika adabiyotida esa bola realistik, murakkab va ko'pincha ijtimoiy muammolar bilan bog'langan obraz sifatida ko'rsatilgan.
- XX asr davomida bolalar obrazi kattalar dunyosiga qarshi turadigan, mustaqil, ba'zan esa tajovuzkor shaxs sifatida tasvirlangan.
- Ikkala adabiyotda ham bolalik — jamiyatdagi o'zgarishlar va notinchliklarning aks-sadosi sifatida talqin qilingan.

Xulosa. XX asr ingliz va amerika adabiyotida bolalar obrazlari adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni yoritishga xizmat qildi. Ingliz adabiyotida bola ko‘pincha nozik, idealize qilingan va ichki kechinmalar bilan boyitilgan shaxs sifatida tasvirlangan bo‘lsa, amerika adabiyotida bola murakkab, realistik va ko‘pincha muammolar girdobida tasvirlandi. Bu farqlar va o‘xshashliklar, adabiyotshunoslikda bolalik tasvirining shakllanishi va rivojlanishini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Levin, H. (1960). James Joyce: A critical introduction. London.
2. Nenilin, A. (2006). Stephen King and the theme of childhood in the Anglo-American literary tradition (Thesis abstract).
3. Gavin, A. E. (2012a). The child in British literature: An introduction. In A. E. Gavin (Ed.), The child in British literature: Literary constructions of childhood, medieval to contemporary (pp. 1–18). Palgrave Macmillan.
4. Krips, V. (2000). The presence of the past: Memory, heritage and childhood in post-war Britain. Routledge
5. Mickenberg, J. L. (2006). Learning from the left: Children’s literature, the Cold War, and radical politics in the United States. Oxford University Press.
6. Cart, M. (1996). From romance to realism: 50 years of change and growth in young adult literature. HarperCollins.
7. Spann, E. (1970). Problemkinder in der englischen Erzählkunst der Gegenwart (Doctoral dissertation). Tübingen.
8. Richards, J.-A. (2014). The imagined child. Johannesburg.
9. Dodou, K. (2012). Examining the idea of childhood: The child in the contemporary British novel. In A. E. Gavin (Ed.), The child in British literature: Literary constructions of childhood, medieval to contemporary (Kindle ed., pp. 238–250). Palgrave Macmillan.
10. Шишкова И.А. Национальная ментальность в английской художественной литературе для подростков. Конец XIX – XX вв. Дисс...доктора филолог. Наук. – М., 2003. – 426 с.
11. Заварова А. Миф о детстве (осмысление детства в искусстве конца XIX – начала XX веков) // Детская литература 1994. № 3. – С. 71 – 74.
12. Douglas, K. (2010). Contesting childhood: Autobiography, trauma, and memory. Rutgers University Press.